

*Ergasheva Shaxista Abduragim qizi*

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Muzei menejmenti va madaniy turizm ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Termiz arxeologiya muzeyi tarixi va faoliyati faoliyati haqida so'z yuritiladi. Muzeida olib borilayotgan ko'rgazmalar, tadbirlar, undagi eksponatlar haqida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** muzey, predmet, buyum, fond, material, eksponat, ekspozitsiya, eksplikatsiya, bo'lim.

**Annotation:** This article talks about the history and activities of the Termiz Archaeological Museum. Information about the exhibitions, events and exhibits held in the museum is covered.

**Key words:** museum, object, item, fund, material, exhibit, exposition, explanation, section.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается об истории и деятельности Термезского археологического музея. Освещается информация о выставках, мероприятиях и экспонатах, проводимых в музее.

**Ключевые слова:** музей, предмет, предмет, фонд, материал, экспонат, экспозиция, пояснение, раздел.

O'zbekiston hududida arxeologiya sohasiga to'liq asoslangan yagona muassasa, Termiz arxeologiya muzeyi Termiz shahri At-Termiziy ko'chasida joylashgan. Muzey O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan bunyod etilib, u kishi ishtirokida 2002-yil 2-aprel Termiz shahrining 2500 yillik tantalari oldidan ochildi.

Kirish zali muzeyning birinchi qavatida bo'lib, uning markazida Surxondaryo viloyatining topografik relyef xaritasi o'rin olgan. Bundan tashqari ushbu qavatda muzey numizmatika fondidan turli davrlarga oid tangalar, hamda qimmatbaho taqinchoqlar namoyish etilgan zal va taniqli yapon arxeologi Kato Kyudzoning Surxondaryo vohasida olib borgan ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan ko'rgazma zali mavjud.

Muzeyning ikkinchi qavati ko'rgazma zali Surxon vohasida kechgan tarixiy jarayonlarni xronologik tartibga solgan holda 9 qismga bo'lingan bo'lib, har bir tarixiy davr ma'lum nomlar asosida taqdim etilgan.

Muzeyning barcha ko'rgazma zallari zamonaviy video-audio moslamalar bilan jihozlangan<sup>1</sup>.

Kirish zali, 9 ta zal va muzey hovlisidagi ayvon ostida turli davrlarga mansub xumlar, sopol quvurlar, Sher bosh qismi tasviri tushirilgan kapitel va islmiy yozuvdagi marmar qabrtosh va ustunli ayvon (galereya)dan iborat. Kirish zalining pastki ikki tomonida davrma-davr xumlar, maxsus chiroqlar bilan yoritiladigan vitrinalar ichida esa eksponatlar qo'yilgan. Zalning o'rtasida Surxondaryo viloyatining topografik relefli arxeologik yodgorliklar xaritasi, to'rida esa Ko'hna Termiz shahri qa'asining maketi qo'yilgan. Shuningdek, kirish zalida akademik E.V.Rtveladze tomonidan yozilgan o'zbek, ingliz, rus tillaridagi viloyat tarixi haqida hikoya qiluvchi stendlar osib qo'yilgan. Ko'hna Termiz shahri qal'asi maketining o'ng va chap tomonida Surxondaryo

<sup>1</sup> <https://www.fayllar.org/termiz-arxeologiya-muzeyi.html>

viloyati hududida joylashgan arxeologik va tarixiy yodgorliklar haqida hikoya qiluvchi 3 xil tildagi ko'rsatuvlar videomonitorlar orqali namoyish etib turiladi va har 15 minutda qaytadan takrorlanadi. Muzeining kirish zalida vohaning har bir tarixiy davriga xos to'shva ganchdan yasalgan noyob haykallar, toshhovuz va katta hajmdagi sopol idishlar joy olgan bo'lsa, 9 ta asosiy ko'rgazma zallarida miloddan avvalgi 100 ming -yillikdan XX asr boshlariga qadar Surxondaryo viloyat yodgorliklarini o'rganish jarayonida topilgan oddiy tosh qurollardan tortib yuksak did bilan yaratilgan san'at namunalargacha namoyish etiladi.

1-zal. Surxon vohasi tosh davrida (miloddan avvalgi 100 mingyilliklar) Surxondaryo viloyatining mo'tadil iqlimi va atrof-muhit bu yerda juda qadimdan inson manzilgohlarining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Janubiy Hisor tog' tizmasi turkumiga kirgan Boysuntog' va Ko'hitang tog'larida mavjud g'or va o'ngurlar ibtidoiy davr odamlari uchun makon bo'lib xizmat qilgan. Viloyat hududidagi eng qadimgi makon neandertal odamning manzilgohi Boysuntog'dagi Teshiktosh g'ori bo'lib, o'rta tosh davriga, ya'ni miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklarga oid. Bu g'ordan 3000 donaga yaqin ibtidoiy odamlar yasagan keskich, taroshlagich va chopqi kabi tosh o'zaklar topilgan. Teshiktosh g'oridan ibtidoiy davr odamining tashqi ko'rinishini tiklashda muhim ashyoviy manba hisoblangan odam tana suyagi topilishi juda muhimdir. Boysundagi Amir Temur g'ori ham viloyatning eng qadimgi g'or makonlari turkumiga kiradi. Tosh asrining Yuqori bosqichiga kelib (miloddan avvalgi 40-12 mingyilliklar) janubiy Hisor tog' tizmalaridan boshlangan daryo va soy bo'ylari (To'palang daryosi havzasi) insonlar tomonidan jadal o'zlashtirilgan. Mezolit davriga kelib insonlarni nafaqat g'orlarda, balki past tekisliklarda va daryo bo'ylarida ham makon qurib istiqomat qila boshlaganlar. Shu bois viloyatning Ko'hna Termiz, Ayritom kabi yodgorliklarida ko'plab tosh qurollar uchragan. Bu davrga kelib o'q-yoy ixtiro qilingan, suyakdan bigiz va boshqa qurollar yasalgan, mayda tosh qurollar ko'paygan va yovvoyi hayvonlar xonakilashtirila boshlangan. O'rta tosh davri insonlar tasavvurlari va e'tiqodlarida keskin o'zgarish yuz bergan davr hisoblanadi. Bu jarayonni markaziy Osiyoning eng qadimgi rang tasvirlaridan bo'lmish Ko'hitangdagi Zarautsoy suratlarida kuzatish mumkin. Zarautsoydagi tosh ayvon yuza qismida va shipida 200 ga yaqin qizil bo'yoqlarda bitilgan suratlar saqlanib qolgan. Bu lavhalarda ov marosimi, hayvonot olami va o'rta tosh davri odamlari tasvirlari o'z aksini topgan. Ba'zi bir olimlarning ta'kidlashicha, Zarautsoy suratlarida sehrli ov marosimi aks ettirilgan. Zarautsoy suratlari Markaziy Osiyoda san'atning, shu jumladan, tasviriy san'atning ilk namunasi hisoblanadi. Viloyatda neolit (yangi tosh), eneolit (mis-tosh) davrlari manzilgohlari, Ko'hitang va Bobotog' hududlarida qayd etilgan bo'lib, bu makon va manzilgohlar ham jez (bronza) asrida vohada dehqonchilik madaniyatining vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etgan. Muzeining 1-zali Surxondaryo viloyati eTosh davridaE deb nomlanib, bundan 100-3 mingyildan avvalgi davrni o'zida aks ettiradi. Zalda Boysun tumanidagi Teshiktosh g'oridan topilgan neandertal bolaning bosh qismi maketi, qabrining ko'rinishi, Zarautsoyda topilgan ov marosimi aks ettirilgan qoyatosh surat namunasi hamda Teshiktosh va Machay g'orlaridan topilgan tosh va suyakdan yasalgan mehnat va ov qurollari, eneolit davriga oid toshdan yasalgan omoch tig'lari, bronza davriga oid ayol qabrini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, Sopollitepa, Jarqo'tondan topilgan ilk kulolchilik namunalari ham mavjuddir.

2-zal. Surxon vohasi bronza davrida Markaziy Osiyoda tub o'zgarishlar yuz bergan davr hisoblanadi. Bu avvalambor qalayi, mis va qo'rg'oshin qorishmasidan tarkib topgan jez (bronza) qurollarning ixtiro qilinishi bilan bog'liq bo'lgan. Bronzaning kashf etilishi tufayli mehnat va ov qurollari takomillashgan, kulolchilik charxining ixtiro qilinishi hunarmandchilikning

dehqonchilikdan alohida xo'jalik sifatida ajralib chiqishiga olib kelgan. Jez davriga kelib, me'morchilik rivojlangan, sug'orma dehqonchilikka asos solingan va mintaqalararo mol ayriboshlash yuzaga kela boshlagan. Viloyat hududida so'nggi jez davriga oid eng dastlabki o'rganilgan yodgorlik Muzrabot vohasidagi O'lanbuloq soy etagida joylashgan Sopollitepa yodgorligi hisoblanadi. Shu bois Surxon vohasining so'nggi jez asriga mansub madaniyati Sopolli madaniyati deb nomlangan Sopollitepa qal'a va unga tutash qismdan tarkib topgan, tarxi 82x82 m., ichki yo'lakli uch qator mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. qal'ada aholi javom-jamoa bo'lib yashab, ular 8 mahallani tashkil etgan. Miloddan avvalgi UX asrda Sopollida hayot izlari so'nadi va bu joyda istiqomat etgan aholi Sheroboddaryo havzasiga uning qadimiy irmoqlaridan biri Bo'stonsoy qirg'oqlariga ko'chadi. Bu obida Jarqo'ton nomi ostida ma'lum bo'lib, 100 gektardan ortiq maydonni tashkil etadi. Jarqo'ton yodgorligi alohida muhofazalangan qal'a saroy va unga tutash qismdan, shu jumladan, voha uchun diniy markaz vazifasini o'tagan ibodatxona, alohida alohida tepaliklar shaklidagi turar-joy binolaridan iborat mahallalar, kulollar ustaxonalari va xumdonlar, shuningdek, mozor-qabristondan iborat. 48 Jarqo'ton yodgorliklarining umumiy maydoni, unda mahobatli inshootlarning mavjudligi hunarmandchilikning taraqqiy etgani bu joyda shahar turkumidagi madaniyat mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Jarqo'ton yodgorligi Vatanimiz hududidagi eng qadimiy shaharning ilk timsolidir. Jarqo'ton olov ibodatxonasi bu turdagi inshootlarning eng qadimiysi bo'lib, keyinchalik Ko'hna Sharqning ba'zi bir markazlarida keng tarqalgan olov ibodatxonalarining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Viloyatning ba'zi bir hududlarida, shu jumladan, Mirshodi vohasida, Surxondaryoning o'rta va yuqori havzalarida jez davrining Yangi qishloq va qal'alari vujudga kelgan. Sopolli madaniyati sohiblari Vatanimiz hududida dastlabki sug'orma dehqonchilikka asos solgan qabilalar hisoblanadi. Sopollitepa, Jarqo'ton, Molali kabi obidalarni qazish jarayonida topilgan don qoldiqlari, toshdan yasalgan mehnat qurollari, ipakdan to'qilgan mato va boshqa ashyoviy manbalar buning isbotidir. Sopolli madaniyatiga xos hunarmandchilik namunalari turli-tuman bo'lib, jezdani quyma usulda yasalgan ko'zgular, o'smadon va ko'zachalar, tepa qismida hayvon bosh qismi tasvirlangan jez bigizlar, ilon va xochsimon shaklda muhrlar, turli tog' jinslaridan yasalgan munchoqlardan iborat. Bu davrda hunarmandchilikning ommaviy turlaridan biri kulolchilik ham jadal taraqqiy topgan. Sarg'ish va qizg'ish loydan charxda yasaliib, maxsus xumdonlarda pishirilgan vaza va kosalar, ko'za va jo'mrakli idishlar, turli hajmdagi xurmacha va xumlar o'zining sifatliiligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Sopolli va ayniqsa, Jarqo'ton yodgorliklarida loydan yasalgan but haykal, hayvonlar tasviri aks ettirilgan obrazlarning mavjudligi vohada jez davrining so'nggi bosqichlarida badiiy san'atning ilk kurtaklari ham shakllanganligidan dalolat beradi. Vohada so'nggi jez davrida istiqomat qilgan aholi Ko'hna Sharqning qadimiy sivilizatsiyalari, shu jumladan, Shumer, Akkad, Elam, Shimoliy Hindistonning Xarappa, Sibir va Qozog'iston hududlarida istiqomat qilgan elat va qabilalar Bilan yaqin iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lganlar.

Muzeyning 2-zali Surxondaryo bronza davrida deb nomlanib, har bir zalning kirish qismida peshtoqlar bo'lib, o'sha davrga xos yodgorlik namunalari aks ettirilgan, shu bilan birga har bir zalning o'rta qismida tag kursilar qo'yilgan bo'lib, ularning Yuqorisida har bir davrga oid uy-ro'zg'or anjomlari joylashtirilgan. Ushbu zalda O'zbekiston sivilizatsiyasida ilk davlatchilik shakllanishi jarayonini boshlab bergan dastlabki shaharlardan hisoblangan Jarqo'ton va

Sopollitepa maketi namunasi o'sha yerdan topilgan sopol va ayollar pardozandoz buyumlari saqlanadigan idishlar kishi diqqatini tortadi<sup>2</sup>.

3-zal. Qadimgi Baqtriya madaniyati miloddan avvalgi mingyillikning birinchi choragida o'z tasarrufiga Surxon vohasi, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston yerlarini birlashtirgan Baqtriya o'lkasi iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida chuqur o'zgarishlar yuz bergan davr hisoblanadi. Bu jarayon bevosita temirdan metall qurollari yasashning ixtiro qilinishi bilan bog'liq bo'lgan. Voha ahli temirni so'nggi jez davridayoq, ya'ni Ko'hna Sharqning madaniy xalqlaridan biri xetliklar bilan qariyb bir davrda kashf etgan. O'lkada temirdan ommaviy tarzda mehnat va harbiy qurollar yasash temirdan mehnat va harbiy qurol-yarog'lar yasashning ixtiro qilinishi dehqonchilik, g'arbiy bilimlar va hunarmandchilik rivojiga kata ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bu jarayon ayniqsa, ilk temir asri obidalari tuzilishida va qishloq xo'jaligida yaqqol seziladi. Ilk temir asriga kelib, vohaning dehqonchilik uchun qulay bo'lgan hududlari jadal o'zlashtirilgan (Bandixon, Mirshodi vohalari va Surxondaryoning quyi havzasi) va Muzrabod, Sherobod vohalari hududlarida yanggidan bunyod etilgan shaharlar va qal'alar hisobiga mavjud ekinzor yerlar kengaytirilgan. So'nggi jez davrida vohada dehqonchilik asosan soy va daryolar havzalarida olib borilgan bo'lsa, ilk temir asrida sun'iy kanallar qazilib, yerlar o'zlashtirilgan. Bandixon vohasidagi O'rgulsoydan qazib chiqarilgan va qadimgi Zang kanali (Quyi Surxondaryo vohasi) shular jumlasidandir. Ilk temir asri Baqtriya zaminida ikki qismli shaharlarning to'liq shakllangan davri hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Орифжонова Г.Р. Ўзбекистон этномаданий меросини сақлаш, тадқиқ этиш ва намойиш этишининг тарихий-маданий жиҳатлари (Ўзбекистон музейлари коллекциялари мисолида). Монография. – Тошкент: «Lesson-press» нашриёти, 2021. – Б 167.
2. Исмаилова Ж.Х., Левтеева Л. Музеи, галереи, арт-центры Ташкента. – Тошкент: Фан ва технология, 2017. – Б. 173.
3. Исмаилова Ж.Х., Левтеева Л. Музеи, галереи, арт-центры Ташкента. – Тошкент: Фан ва технология, 2017. – Б. 158.
4. <https://www.fayllar.org/termiz-arxeologiya-muzeyi.html>

<sup>2</sup> <https://www.fayllar.org/termiz-arxeologiya-muzeyi.html>